

28. Ko'p xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish

Yondosh mavzu:
Valyuta, valyuta kursi

Sonli ifodalar,
yaxlit sonlar



1. Ifodalarni hisoblang va ularga mos qiymatlarni toping.
Bu mamlakatlarning milliy valyutalari qanday ataladi?

Argentina

$$6\,300 : 900 + 210 : 70$$

Janubiy Afrika

$$70 \cdot 70 - 36\,000 : 40$$

Eron

$$60 \cdot 30 + 400 \cdot 8$$

Turkiya

$$800 \cdot 9 - 5\,600 : 7$$

4 000

Rend

10

Peso

6 400

Lira

5 000

Tuman

2. Savollarga javob berishi uchun ifodalar tuzing.

- a) Tadbirkor xorijga ketishdan oldin bankdan 1 000 dollar sotib oldi. Agar 1 dollar 10 970 so'm bo'lsa, u qancha so'm to'lagan?
- b) U qaytgach, ortib qolgan 100 dollarini bankda so'mga almashtirdi. Bu vaqtda dollar kursi 11 380 so'm bo'lgan edi. Tadbirkor foyda ko'rganmi yoki zarar? Qanchaga?

3. Sonlarni o'qing. Qaysi xona birliklari ishtirok etmayapti?

- a) $800\,000 + 5\,000 + 400 + 30$
- b) $1\,000\,000 + 6\,000 + 6$
- d) $70\,000\,000 + 4\,000\,000 + 400\,000 + 300 + 70 + 8$

28. Ko'p xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish

Ko'p xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish uchun:

- 1) bir xonali sonni ko'p xonali sonning tagiga yozamiz;
- 2) ko'p xonali sonning har bir xonasini bir xonali songa ko'paytiramiz. Agar xona ustida son yozilgan bo'lsa, uni ko'paytmaga qo'shamiz;
- 3) bunday yig'indining birligini javobda xona ostiga yozamiz, o'nlikni yodda tutamiz – uni navbatdagi xona ustiga yozamiz.



	2	5	2	3	
	3	8	4	5	
				6	
2	3	0	7	0	

	1	3		2	4	
	3	6	1	0	4	8
					5	
1	8	0	5	2	4	0



4. Hisoblang.

a) $5\ 686 \cdot 6$

b) $63\ 045 \cdot 8$

d) $120\ 423 \cdot 4 - 6\ 783 \cdot 5$

e) $295\ 643 \cdot 7 + 5089 \cdot 3$



5. Valyuta kursi – bir mamlakat pul birligining so'mdagi qiymati.

Eng ommabop valyutalarning kursiga qarang*. Qaysi valyuta eng qimmat ekan? Bu qiymatlarni kamayish tartibida yozing.

	Amerika dollari	USD	11 462 so'm
	Rossiya rubli	RUB	141 so'm
	Yevro	EUR	12 581 so'm
	Angliya funt sterlingi	GBP	14 172 so'm
	Yapon iyenasi	JPY	85 so'm

Eng katta va eng kichik qiymatlar qanchalik farq qilishini solishtiring.

28. Ko'p xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish



6. 5-vazifadagi jadvaldan foydalanib, quyidagilarni aniqlang:
- a) Iroda Zoirovna 5 yevro va 8 Angliya funt sterlingini so'mga alishtirsa, necha so'm oladi?
 - b) kim ko'p pul sarflagan: 7 Yaponiya iyenasi sotib olgan Madinami yoki 9 Rossiya rublini sotib olgan Azizami?



7. Har bir yevro banknoti o'z o'lchami va rangiga ega. 50 yevrolik kupyuraning bo'yi 140 mm, eni 77 mm, sariq rangli to'rtburchak shaklida. Daftaringizga shu o'lchamda to'rtburchak chizing. Uning perimetri qancha bo'ladi?



8. Ko'paytirish jadvalida ko'paytuvchilarning bir qismi o'chirilgan, ko'paytmalarning bir qismi esa harflar bilan almashtirilgan. Qaysi ikkita harf bir xil sonni ifodalayapti?

		9			6
	25	P	15	40	30
2	Y	E	V	R	O
	20	S	O'	M	24
	35	O	21	56	42



9. Hisoblang. Amallar tartibini belgilang.
- a) $73\,957 \cdot 7 - (600\,000 + 640\,000 : 8\,000)$
 - b) $(221\,721 + 78\,279) : 600 + 402\,234 \cdot 9$



10. Istalgan banknotni o'lchang. Daftaringizga xuddi shunday o'lchamda to'g'ri to'rtburchak chizing va uning perimetrini toping.